



UDK: 37(575.1).(091)

Nasiba JUMANIYOZOVA,

PhD, Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: jumaniyazovan87@gmail.com, <https://ORCID.org/0000-0001-8208-4276>

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOY YANGILANISH JARAYONLARI

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ta'lim tizimida kechgan ijtimoiy yangilanish jarayonlari tahlil qilinadi. Unda an'anaviy maktab-madrasa ta'limi, mustamlakachilik siyosati, rus-tuzem maktablari va jadidchilik harakatining ma'rifiy taraqqiyotga ta'siri ochib beriladi, shuningdek, ta'limning milliy uyg'onish, savodxonlik va ijtimoiy ong shakllanishidagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, ta'lim tizimi, maktab, madrasa, jadidchilik, rus-tuzem maktablari, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy yangilanish, mustamlakachilik siyosati, milliy uyg'onish, savodxonlik, ijtimoiy ong.

СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ ОБНОВЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ТУРКЕСТАНА В КОНЦЕ XIX — НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Аннотация

В статье анализируются процессы социального обновления в системе образования Туркестана конца XIX — начала XX века. Раскрывается влияние традиционного мактабно-медресейного образования, колониальной политики, русско-туземных школ и джадидского движения на развитие просвещения, национального пробуждения, грамотности и общественного сознания.

Ключевые слова: Туркестан, система образования, мактаб, медресе, джадидизм, русско-туземные школы, просветительство, социальное обновление, колониальная политика, национальное пробуждение, грамотность, общественное сознание.

SOCIAL RENEWAL PROCESSES IN THE EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Annotation

The article analyzes the processes of social renewal in the education system of Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries. It reveals the influence of traditional maktab and madrasah education, colonial policy, Russian-native schools, and the Jadid movement on enlightenment, national awakening, literacy, and social consciousness.

Key words: Turkestan, education system, maktab, madrasah, Jadidism, Russian-native schools, enlightenment, social renewal, colonial policy, national awakening, literacy, social consciousness.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ta'lim tizimida kechgan ijtimoiy yangilanish jarayonlarini to'g'ri anglash uchun, avvalo, bu hududda ta'lim va tarbiya an'analari juda qadimiy madaniy qatlamlarga borib taqalishini nazarda tutish lozim. Vatanimiz hududida bilim berish, savod chiqarish va axloqiy tarbiya masalalari yozma madaniyatning shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Xususan, "Avesto"da insonni ma'naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan kamol toptirish, yosh avlodni ezgulik, poklik, mehnat va mas'uliyat ruhida tarbiyalash g'oyalari muhim o'rin egallagan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, Turkiston zaminida ta'lim faqat bilim berish vositasi emas, balki jamiyatning ma'naviy tartibini saqlash, avlodlar o'rtasida madaniy vorislikni ta'minlash va shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim instituti sifatida shakllangan.

Ta'lim an'analarning keyingi taraqqiyotida sug'd madaniyati va sug'd yozuvi alohida ahamiyat kasb etgan. Sug'd yozuvi asosida yaratilgan yodgorliklar, tarixiy va badiiy mazmundagi manbalar Turkiston xalqlarining savodxonlik darajasi, madaniy muloqoti va ma'naviy tafakkuri rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu jihatdan qaraganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ta'lim islohotlari tasodifiy hodisa emas, balki ko'p asrlik ma'rifiy merosning yangi tarixiy sharoitda qayta

uyg'onishi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bu davrga kelib an'anaviy maktab va madrasalar, diniy-axloqiy tarbiya usullari, mahalliy savodxonlik tajribasi jamiyat ehtiyojlari bilan to'qnash kela boshladi. Natijada ta'lim sohasida yangicha qarashlar, yangi usul maktablari, dunyoviy fanlarga e'tibor va ma'rifatparvarlik g'oyalari kuchaydi.

VIII asrdan boshlab islom dinining Turkiston hududiga kirib kelishi ta'lim tizimining mazmun va shakliga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Masjidlar qoshida maktablar, keyinchalik madrasalar faoliyat yuritib, ularda bolalarga o'qish, yozish, diniy bilimlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy hayot qoidalari o'rgatildi. Bu ta'lim tizimi asrlar davomida mahalliy jamiyatning ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qildi. Biroq XIX asr oxiriga kelib Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati, yangi ma'muriy boshqaruv tartiblari va tashqi madaniy ta'sirlar ta'lim sohasini ham o'zgartirish zaruratini yuzaga chiqardi. Shu tariqa, qadimiy ma'rifiy an'alar bilan yangi davr talablari o'rtasidagi ziddiyat Turkiston ta'lim tizimida ijtimoiy yangilanish jarayonlarining shakllanishiga asos bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Turkiston ta'lim tizimining tarixiy rivoji, an'anaviy maktab va madrasalar

faoliyati hamda jadidchilik harakatining mazmunini yoritishga qaratilgan. Tadqiqotchilar tomonidan an'anaviy ta'lim tizimining kuchli va zaif jihatlari, uning ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi hamda XIX asr oxiriga kelib yuzaga kelgan inqiroz omillari tahlil qilingan.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda jadid ma'rifatparvarlarining ta'limni isloh qilishdagi roli, yangi usul maktablarining paydo bo'lishi, o'qitish metodikasining yangilanishi va dunyoviy fanlarning joriy etilishi alohida e'tirof etiladi. Ayrim manbalarda esa Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining ta'lim tizimiga ta'siri ham ko'rib chiqilgan. Mavjud adabiyotlar Turkistonda ta'lim sohasidagi ijtimoiy yangilanishlar ichki ehtiyojlar, tashqi ta'sirlar va milliy ma'rifatparvarlik harakatlari uyg'unligida shakllangan murakkab tarixiy jarayon ekanini ko'rsatadi.

Turkistonda ta'lim tizimining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi holatini tahlil qilishda islom sivilizatsiyasi ta'sirida shakllangan maktab va madrasa an'analari chetlab o'tish mumkin emas. Chunki mintaqa xalqlarining madaniy taraqqiyoti, ma'naviy yuksalishi va savodxonlik tajribasi uzoq asrlar davomida aynan islomiy ta'lim muhiti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Islom dini qaror topganidan keyin musulmon jamiyatlarida ta'lim ikki asosiy bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqich maktab bo'lib, u bolalarga dastlabki savod, diniy tushuncha va axloqiy tarbiya berish vazifasini bajargan. Ikkinchi bosqich esa madrasa bo'lib, unda diniy ilmlar, fiqh, tafsir, hadis, mantiq, arab tili, ba'zi hollarda hisob, adabiyot va boshqa an'anaviy bilimlar o'qitilgan. Shu jihatdan maktab va madrasa Turkiston jamiyatida nafaqat ta'lim muassasasi, balki ijtimoiy tarbiya, ma'naviy intizom va madaniy vorislikni ta'minlovchi muhim institut vazifasini ham bajargan.

Turkistondagi an'anaviy maktablar odatda masjidlar, mozarlar atrofidagi binolarda yoki ayrim xususiy shaxslar hovllarida faoliyat yuritgan. Ularda ta'lim beruvchi shaxslar ko'pincha masjid imomi, madrasani tugatgan domla yoki diniy savodga ega mahalliy ziyolilar bo'lgan. O'g'il bolalarni asosan domlalar o'qitgan bo'lsa, qiz bolalar ta'limi ko'proq uy sharoitida otinoyi, otinbibi, bibixalifa, bibiotin kabi nomlar bilan tanilgan ayollar tomonidan amalga oshirilgan. Bu holat Turkiston jamiyatida ta'lim jarayoni jins, oilaviy muhit, mahalla va diniy an'analardan bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, qizlar ta'limining uy sharoitida tashkil etilishi bir tomondan mavjud ijtimoiy-axloqiy me'yorlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ayollar savodxonligini ta'minlashda mahalliy an'anaviy shakllarning muayyan darajada amal qilganidan dalolat beradi[1].

An'anaviy maktablarda ta'lim yagona rasmiy dastur asosida olib borilmagan bo'lsa-da, unda islom dini asoslari, arab yozuvi, Qur'on o'qish, oddiy hisob va axloqiy tarbiya muhim o'rin egallagan. O'quvchilar avval arab harflarini o'rganib, so'ng Qur'on suralarini o'qish va yodlashga o'tgan. Bu jarayon sabr, xotira va intizomni talab qilgan. Biroq ta'lim asosan yodlashga yo'naltirilgani sababli XIX asr oxiriga kelib yangi ijtimoiy ehtiyojlarga to'liq javob bera olmadi. Savdosotiqning rivojlanishi, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar, yangi maktablarning paydo bo'lishi va jadidchilik harakati ta'limni yangilash zaruratini kuchaytirdi. Bu davrdagi ijtimoiy yangilanishlar an'anaviy ta'limni inkor etish emas, balki uni zamon talablariga moslashtirishga qaratildi. Jadidlar ta'limni isloh qilish, o'qitish usullarini soddalashtirish, dunyoviy fanlarni joriy etish va jamiyatni ma'rifat orqali rivojlantirish g'oyasini ilgari surdilar. Shu tariqa an'anaviy ta'lim tizimi keyingi islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

An'anaviy maktablar asosan boshlang'ich diniy savod berish bilan cheklangan bo'lib, o'quvchilarni kasb yoki amaliy faoliyatga tayyorlashga yetarli e'tibor qaratilmagan. Rasmiy

bitiruv hujjatlarining yo'qligi ham ularning faqat madrasaga tayyorlov bosqichi ekanini ko'rsatadi. Shu sababli ular savodxonlikni ta'minlagan bo'lsa-da, amaliy bilimlar berish imkoniyati cheklangan edi. Natijada jamiyatda kengroq bilimga ega, dunyoviy fanlarni biladigan avlodga ehtiyoj ortdi.

Sharqshunos V. Nalivkin ma'lumotlariga ko'ra, o'qitish arab harflarini yodlashdan boshlanib, "Haftiyak" va "Chor kitob" orqali davom etgan, keyinchalik Hofiz, Bedil, Fuzuliy kabi shoirlar asarlari o'rganilgan. Bu tizim xotira va axloqiy dunyoqarashni rivojlantirgan bo'lsa-da, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni yetarli shakllantirmagan. Yagona dastur va baholash mezonlari ham mavjud bo'lmagan. Madrasa esa maktabdan keyingi bosqich bo'lib, o'rta va oliy ta'lim vazifasini bajargan. U yerda diniy va ayrim dunyoviy bilimlar berilib, ulamolar va ziyolilar tayyorlangan. Madrasalar jamiyatda muhim o'rin tutgan bo'lib, ularning faoliyati vaqf mulklari orqali ta'minlangan va ta'lim jarayoni an'anaviy tartib asosida tashkil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Madrasa ta'limi boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarda olib borilgan. Ularda arab va fors tillarida yozilgan asarlar asosiy o'quv manbai sifatida o'rganilgan. Dastlab fors tilidagi "Avvali ilm" kabi kitoblar o'qitilgan, keyin arab tili grammatikasi, shariat aqidalari, fiqh, mantiq va boshqa diniy-nazariy fanlar o'zlashtirilgan. Shu bilan birga, ayrim madrasalarda tibbiyot, aruz, falsafa, jo'g'rofiya va boshqa sohalarga oid bilimlar ham berilgan. Bu holat madrasalarni faqat diniy ta'lim maskani sifatida emas, balki o'z davri uchun keng ma'rifiy muhit yaratgan muassasa sifatida baholash imkonini beradi. Ammo o'qish muddatining 15–20-yilgacha cho'zilishi, dasturlarning bir xil emasligi, fanlarning ko'proq sharh va hoshiyalar orqali o'rganilishi, amaliy hayot talablariga mos dunyoviy bilimlarning cheklanganligi XIX asr oxiriga kelib ta'lim tizimida jiddiy yangilanish ehtiyojini yuzaga chiqardi[2].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ta'lim tizimidagi ijtimoiy yangilanishlar maktab va madrasalarni rad etishga emas, balki ularning tarixiy tajribasini zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga qaratildi. Jadidlar an'anaviy ta'limning ijobiy jihatlari saqlagan holda, uning metodik kamchiliklarini tanqid qilib, ta'limni hayotga yaqinlashtirish, dunyoviy fanlarni joriy etish va tartibli o'qitish tizimini yaratishni ilgari surdilar. Bu jarayon avvalo an'anaviy tizimning imkoniyat va cheklovlarini anglashdan boshlandi.

Madrasalarda o'qitiladigan fanlar yagona dastur asosida belgilanmagan bo'lib, ular ko'proq mudarrislar salohiyati va mahalliy ehtiyojlarga bog'liq holda shakllangan. Shu bois madrasalar moslashuvchan bo'lgan bo'lsa-da, tizimli metodika va umumiy baholash mezonlaridan yiroq edi. Bu esa ta'limni isloh qilish zaruratini kuchaytirdi.

Ibn Xaldun ta'limdagi ilmlarni ikki guruhga — aqliy (mantiq, matematika, tibbiyot, astronomiya va boshqalar) hamda naqliy (Qur'on, hadis, fiqh, tasavvuf va til ilmlari) fanlarga ajratgan. Bu tasnif madrasalarda diniy bilimlar bilan bir qatorda aqliy fanlarga ham o'rin berilganini ko'rsatadi. Biroq amaliyotda fanlarning ulushi har bir madrasa sharoitiga qarab farq qilgan.

Natija va muhokamalar. Turkiston madrasalarida ham asosan shu ikki yo'nalishdagi bilimlar o'qitilgan, ammo XIX asr oxiriga kelib ular zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga to'liq mos kelmay qoldi. Jadidlar aynan shu muammoni anglab, ta'limga amaliy va dunyoviy fanlarni kengroq kiritish zarurligini ta'kidladilar. Ta'lim tizimidagi yangilanish ehtiyoji jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan bog'liq bo'lgan. Ilm-fanga talab kuchli bo'lgan davrlarda ta'lim rivojlangan, aks holda esa turg'unlik yuzaga kelgan. XIX asr oxiridagi islohotlar ham uzoq davom etgan ma'rifiy inqirozga javob sifatida paydo bo'ldi.

Islom olamida ilgari ilm-fan yuksak rivojlangan davrlar bo'lgan. Xususan, Bag'dod xalifaligida ilmiy markazlar faoliyat yuritib, tarjima va tadqiqot ishlari rivojlangan. Bu muhitda Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy va Muhammad al-Xorazmiy kabi allomalar yetishib chiqib, jahon ilm-faniga katta hissa qo'shganlar. Ilm-fan taraqqiyotining tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, bilim jamiyat ehtiyoji bilan bog'lansagina u jonli kuchga aylanadi. Agar ilm faqat kitobiy mushohada doirasida qolib, ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish, boshqaruv, savdo, shaharsozlik, tabobat va madaniy aloqalar bilan uzviy bog'lanmasa, uning amaliy ta'siri zaiflashadi. Ilk o'rta asrlarda musulmon Sharqida ilm-fanning yuksalishi aynan ijtimoiy ehtiyoj, davlat homiyligi, madaniy aloqalar va tarjima harakati bilan bog'liq edi. Biroq keyingi davrlarda feodal turg'unlik, siyosiy parokandalik va ijtimoiy ehtiyojning susayishi natijasida ayrim fanlar amaliyotdan uzoqlashib, ko'proq sharh, hoshiya va kitobiy bahslar doirasida qolib ketdi. Natijada ta'limning ijtimoiy samaradorligi pasayib, ilmning hayot bilan aloqasi zaiflasha boshladi.

Xulosa va takliflar. Bag'dodda ilmiy faoliyat susaygach, ma'rifiy markazlar Huroson, Xorazm, Buxoro va Samarqandga ko'chdi. Bu hududlarda Mahmud G'aznaviy, Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan rivojlandi. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi va Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi Turkistonning yirik ilmiy markazga aylanganini ko'rsatadi. Biroq XIX asrga kelib madrasalarda

aqliy fanlar qisqarib, diniy bilimlar ustunlik qila boshladi, natijada ta'lim tizimi ijtimoiy ehtiyojlardan ortda qoldi.

Yangi davr esa keng bilimli, dunyoviy fanlarni biladigan avlodni talab etdi. Shu bois jadidlar ta'limni yangilash, fanlar doirasini kengaytirish va uni hayot bilan bog'lash g'oyasini ilgari surdilar. Bu yangilanishlar tarixiy merosni inkor etish emas, balki uni zamon talablariga moslashtirish edi.

Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, siyosiy va iqtisodiy tanazzul davrlarida ham u zaiflashgan. XIX asr oxirida Turkistonda siyosiy parokandalik, iqtisodiy qoloqlik va o'zaro nizolar ta'lim rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. XVI asrdan boshlab kuchaygan beqarorlik natijasida ta'lim tizimi tashqi ilmiy yutuqlardan uzilib qoldi.

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi ta'lim jarayonlarini murakkablashtirdi. Bir tomondan, rus-tuzem maktablari joriy etildi, ikkinchi tomondan, mustamlakachilik siyosati mahalliy ta'lim va madaniyatga bosim o'tkazdi. Shu bilan birga, bu jarayon mahalliy ziyolilar ongida uyg'onish yasab, ta'limni isloh qilish zaruratini kuchaytirdi. Jadidchilik harakati ana shu sharoitda yuzaga kelib, ta'limni jamiyatni o'zgartirish vositasi sifatida ko'rdi. Ular yangi usul maktablari orqali savodxonlikni oshirish, dunyoviy fanlarni joriy etish va milliy uyg'onishga erishishni maqsad qildilar. Shu bois Turkistondagi ta'lim islohotlari tashqi ta'sirlar va ichki ehtiyojlar uyg'unligida shakllangan murakkab tarixiy jarayon sifatida namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Ибн Халдуннинг илмларни таснифи Р.Баходировнинг “XIV-XVI асрлар мусулмон Шарқида илмлар таснифи масаласининг ёритилиши” мақоласидан олинди// “Шарқшунослик тўплами”, 1995 йил, 6-сон, 1517-б.
2. Наливкин В. Школа у туземцев Средней Азии. “Туркестанские ведомости”, 8 августа 1889 г.
3. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Москва. Наука, 1963.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент. Маънавият, 2002.
5. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент. Ўқитувчи, 1992.
6. Халид А. Джадидизм в Центральной Азии. – Ташкент. Академия, 2009.
7. Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент. Маънавият, 2000.
8. Ўзбек педагогикаси антологияси (II жилд). - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1999. - Б. 9.